

MHXS ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI

Nomozov N. J.

MBH-2 guruh magistranti,
Toshkent davlat transport universiteti

Djumanova A. B.

Ilmiy rahbar, Toshkent davlat transport universiteti, Professor.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zahiralar hisobini ikki xil usulda — BXMS (Buxgalteriya hisobining milliy standartlari) va MXXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) asosida yuritish masalalari ko‘rib chiqiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tannarxni shakllantirish jarayoni o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada tannarxning korxona moliyaviy barqarorligiga ta’siri ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, BXMS, MXXS, COS (cost of sales), inventory, purchase, moliyaviy barqarorlik.

ACCOUNTING OF PRODUCTION COSTS BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS

Nomozov N. J.

MBH-2 group master's student,
Tashkent State Transport University

Djumanova A. B.

Scientific supervisor, Tashkent State Transport University, Professor.

Annotation: This article examines the accounting of inventories in business entities using two methods — according to National Accounting Standards (NAS) and International Financial Reporting Standards (IFRS). The processes of recording production costs and forming product cost are studied. The article also analyzes the impact of production cost on the financial stability of the enterprise.

Keywords: Cost of goods sold, production costs, BXMS, MXXS, COS (cost of sales), inventory, purchase, financial stability.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы ведения учета товарно-материальных запасов в хозяйствующих субъектах двумя способами — в соответствии с национальными стандартами бухгалтерского учета (НСБУ) и международными стандартами финансовой отчетности (МСФО). Изучаются процессы учета производственных затрат и формирования себестоимости. Кроме того, анализируется влияние себестоимости на финансовую устойчивость предприятия.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobini yurtish uchun moliya vazirligi tomonidan 14 avgust 1998-yilda buxgalteriya hisobining milliy standartlari qabul qilindi. Uzoq yillar davomida respublikada barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi aynan ushbu milliy standartlar asosida yuritildi. Buning o'ziga yarasha afzalliklar ham bor. Biroq xalqaro savdo aloqalari kengayishi, mamlakatimizga xalqaro investorlarning qiziqishi ortishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va topshirishni xalqaro standartlar asosida yuritish ustuvor vazifaga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimizda bosqichma-bosqich BXMS dan MXXS o'tishi jarayoni sodir bo'lmoqda. Hozirgi kunga kelib yirik korxonalar, sug'urta tashkilotlari, banklar barcha moliyaviy hisobotlarini MXXS asosida topshirishmoqda. Xususan ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik korxonlar ham MXXS asosida

moliyaviy hisobot tayyorlashmoqda. Buning natijasida Tovar-moddiy zahiralar hisobini yuritishda BXMS va MXXS dagi o'xshashliklar va farqli jihatlar ko'rib chiqish va tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Aynan ushbu jihatlarni yaxshiroq bilish moliyaviy hisobotlar tayyorlashni milliy standartlaridan xalqaro standartlariga o'tish jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni oldini olish imkonini beradi. Chunki tovar-moddiy zahiralar hisobini to'g'ri yuritmaslik korxona moliyaviy hisobotlarini tuzishda qator kamchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Tovar moddiy zahiralar korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan tannarxga ta'sir o'tkazadi.

Dastlab tovar-moddiy zahiralar hisobini milliy standartlar asosida yuritishni huquqiy asoslari va qo'llanilishi ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan milliy standartlarning 4-sonli "Tovar-moddiy zahiralar", 19-sonli "Inventarizatsiya tashkil etish va o'tkazish" va 21-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" lar tovar moddiy zahiralar hisobini milliy standartlar asosida yuritishni huquqiy asoslarini tashkil etadi. Mamlakatimizdagi ko'plab korxonalar aynan shular asosida tovar-moddiy zahiralar hisobini yuritadi. Tovar moddiy zahiralar qiymati 1000 hisob raqamlarda pulda aks ettiriladi. Ular ombordan ishlab chiqarishga berilganda 2010 hisob raqamga o'tkaziladi. O'z qiymatini shu yo'sinda tannarxga o'tkazadi.

Tovar moddiy zahiralar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida IAS 2 "Inventories" nomli standart asosida yuritiladi. Xalqaro standartlarda tovar-moddiy zahiralar "purchase" deb nomlanadi. Ushbu standartga muvofiq tannarx (cost of sales) quyidagi formula orqali aniqlanadi: $COS = \text{Opening inventory} + \text{Purchase} - \text{Closing inventory}$. Bu yerda: COS (cost of sales)-tannarx, Opening inventory-hisob davri boshida TMZ lar qiymati, Purchase-hisob davrida sotib olingan TMZ, Closing inventory-hisobot davri yakunida TMZ lar qiymati.

Quyida BXMS va MXXS asosida TMZ lar hisobini yuritishni o'xshash va farqli jihatlari jadavl ko'rinishida keltirilgan:

Kategoriya	O'xshashliklar (BXMS va MXXS)	Farqli jihatlar (BXMS vs MXXS)
TMZ ni tan olish talablari	1. Iqtisodiy naf keltirishi 2. Mulk huquqi mavjud bo'lishi 3. 1 yilgacha foydalanish 4. Bir ishlab chiqarish siklida o'z qiymatini to'liq tannarxga o'tkazishi	
TMZ qiymatini hisobotda aks ettirish	Agar realizatsiya qilishning sof qiymati tannarxidan past bo'lsa — sof realizatsiya qiymati bo'yicha baholanadi	
Tannarxni hisoblash usullari	FIFO va AVECO (o'rtacha tortilgan qiymat) har ikkala standartda qo'llaniladi	MXXS: Periodic va Continuous weighted average cost BXMS: faqat Periodic WA (Continuous qo'llanilmaydi)

AVECO usuli bo'yicha izoh: 1. Periodic weighted average cost - Ushbu usulda hisobot davrining boshidagi TMZ qiymati va davr davomida xarid qilingan va tayyorlangan TMZ lar qiymati asosida bitta birlik uchun o'rtacha narx hisoblanadi. Ushbu usul hisobot davri oxirida, davr mobaynida amalga oshirilgan jami miqdor va xaridlar qiymati ma'lum bo'lgach, hisoblab chiqiladi.

2. Continuous weighted average cost-Ushbu usulda har bir TMZ xarididan so'ng yangilangan o'rtacha narx (bir birlik uchun) hisoblab chiqiladi. Keyingi sotuvlarning tannarxi aynan shu og'irlashtirilgan o'rtacha narx asosida hisobga olinadi. Hisobot davri davomida har safar yangi xarid amalga oshirilganda, ushbu jarayon takrorlanadi.

Bundan tashqari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida 10-sonli standart "Events After the Reporting Period" nomli standart mavjud. Ushbu standartga ko'ra hisobot davri yakuniga yetgandan so'ng korxona moliyaviy hisoboti tehgishli vakolatli organ tomonidan tasdilangunga qadar hisobotga

jiddiy ta'sir o'tkazadigan hodisalar sodir bo'lsa (adjustment events) korxona moliyaviy hisobotlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Bu TMZ lar hisobini yuritishda quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: hisobot davri tugashi 31-dekabr bo'lsa ushbu davr uchun tuzilgan moliyaviy hisobot 1-martda tasdiqlansa 12-fevralda korxona ma'lum turda xom-ashyoni tannarxidan arzon sotsa, korxona moliyaviy hisobotlarida ushbu xom-ashyo tannarxida emas sof realizatsiya qiymatidan aks ettiriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki korxonada moliyaviy hisobotlarni tuzish va buxgalteriya hisobini yuritishning milliy standartlarida xalqaro standartlarga o'tishda ikkala standartning o'xshash va farqli tomonlarini inobatga olish lozim. Chunki ushbu jihatlarni inobatga olmaslik, moliyaviy hisobotlarda noto'g'ri ma'lumotlar berilishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori. 2020-yil 24-fevral.

2. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 №54 son (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida»gi 140-son buyrug'i (O'zR AVtomonidan 24.01.2003-yilda 1209-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

4. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. To'plam. -T.: O'zRBAMA nashriyot markazi. 2018. 416

5. IAS 2 Inventories